
Qabul qilindi: 30-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 03-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 11-oktabr 2026-yil

OZIQ-OVQAT ISROFI VA YO‘QOTILISHI: BARQAROR RIVOJLANISHNING 12.3 VAZIFASI VA HOZIRGI PAYTDAGI MUAMMOLAR

Nomozova Sevinch

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi



Annotatsiya. Maqolada BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi 12.3-vazifa, ya'ni oziq-ovqat isrofini yarmiga qisqartirish va ta'minot zanjiridagi yo'qotishlarni kamaytirish masalasi tahlil qilinadi. Oziq-ovqat yo'qotilishi va isrofi tushunchalari farqlanadi, UNEP va FAO ning so'nggi ma'lumotlari asosida global ko'lam ko'rsatiladi hamda oziq-ovqat yo'qotishlar va sovutish omborlari yetishmasligi muammosi ko'rib chiqiladi. Maqola oxirida ishlab chiqaruvchilar, biznes, davlat va iste’molchilar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. oziq-ovqat isrofi, oziq-ovqat yo'qotilishi, BRM 12.3 vazifalari, oziq-ovqat xavfsizligi va sovutish zanjiri.

Kirish.

Dunyo miqiyosida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi yuqori bo’lishiga qaramay, uning sezilarli qismi iste’molchiga yetib bormaydi yoki is’temol qilinmasdan chiqindiga aylanadi. Shu bilan birga har kuni dunyoda millionlab odamlar ochlik bilan kurashadi hatto halok bo’ladi. Ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqatning katta qismi esa iste'molchiga yetmay yoki iste'mol qilinmay axlatga tashlanadi. Bu muammo Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari ichida 12-maqsadning 12.3-vazifasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, 2030-yilga qadar chakana savdo va iste'molchi darajasida jon boshiga to'g'ri keladigan global oziq-ovqat isrofini ikki barobar ya’ni teng yarmiga kamaytirish, shuningdek, ishlab chiqarish va ta'minot zanjiridagi, jumladan hosildan keyingi yo'qotishlarni qisqartirish lozim[1].

Mazkur maqolaning maqsadi 12.3-vazifaning mohiyatini tushuntirish, muammoning

global va mahalliy ko'lamini so'nggi ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda uni hal qilishning amaliy yo'llarini ko’rsatishdan iborat.

Food loss va food waste: farq nimada?

Bu ikki tushuncha ko'pincha bir-birining o’rnida, aralashtirilgan holda qo’llaniladi, holbuki ular ta'minot zanjirining turli bosqichlari hisoblanadi. Shu sababli 12.3-vazifa ikki ko'rsatkich orqali kuzatiladi: 12.3.1(a) (Oziq-ovqat yo'qotilishi indeksi, FAO) va 12.3.1(b) (Oziq-ovqat isrofi indeksi, UNEP) [1].

Oziq-ovqat yo'qotilishi (food loss) bu kabi yo’qotishlar hosilni yig‘ib olish, saqlash, tashish va dastlabki qayta ishlash jarayonlarida yuzaga keladi. Oziq ovqat yo’qotilishining asosiy sabablari qatoriga texnik va infratuzilmaviy muammolar: sovutish omborlarining yetishmasligi, yomon yo'llar, eskirgan texnika va noto'g'ri qadoqlash kiradi.

Oziq-ovqat isrofi (food waste) chakana savdo, umumiy ovqatlanish va uy xo'jaliklarida iste’mol qilinishi mumkin bo’lgan oziq-ovqat mahsulotlarining foydalanilmay tashlab yuborilish holatlari tushuniladi. Bunga sabab ovqatanish joylarida ovqatlarni haddan tashqari ko’p tayyorlash va ortib qolganini isrof qilish, mahsulot muddatining o’tib ketishi yoki iste’molchilarning ko’p miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilib, saqlay olmasliklari nazarda tutiladi.

Muammoning global ko'lami

BMT Atrof-muhit dasturining 2024-yil Food Waste Index Report hisobotiga ko'ra, 2022-yilda dunyoda 1,05 milliard tonna oziq-ovqat isrof qilingan [2, 3]. Bu ko’rsatgich aholi jon boshiga yiliga taxminan 132 kilogrammni tashkil etib, iste'molchilarga mavjud bo'lgan barcha oziq-ovqatning taxminan 19 foiziga teng. Bundan tashqari, FAO ma’lumotlariga ko'ra, dunyoda oziq-ovqatining yana taxminan 13 foizi hosil yig'ilgandan keyin chakana savdogacha bo'lgan yo'lda yo'qoladi [9].

1-jadval. 2022-yilda global oziq-ovqat isrofining sektorlar bo'yicha taqsimoti

Sektor	Hajmi (mln tonna)	Ulushi
Uy xo'jaliklari	631	60%

Umumiy ovqatlanish	290	28%
Chakana savdo	131	12%
Jami	1 052 (≈1,05 mlrd)	100%

Manba: UNEP Food Waste Index Report 2024 [2, 3] asosida muallif tayyorlagan.

Jadval ma’lumotlaridan ko'rinib turibdiki, isrofning taxminan 60 foizi uy xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Hisobotga ko'ra, o'rtacha bir kishi yiliga uyda 79 kilogramm oziq-ovqatni isrof qiladi, bu esa dunyo bo'yicha har kuni kamida bir milliard porsiya yeyishga yaroqli ovqat tashlanishiga teng [2, 3]. Muhim xulosalardan biri shuki, oziq-ovqat isrofi faqat daromadi yuqori mamlakatlar muammosi emas, rivojlanayotgan davlatlarda ham, umuman daromadi turli darajada bo’lgan barcha davlatlarda ham aholi doimiy ravishda oziq-ovqat isrofiga yo’l qo’yadi. Boy, rivojlangan davlatlarda bu holat mahsulotlarning haddan ortiq ko’p xarid qilinishi va mahsulotdan o’z muddatida foydalanmaslik, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatsiz holga kelib qolishi bilan tavsiflansa, o’rta-daromadli yoki endi rivojlanayotgan davlatlarda bu sovutish uskunlarining xo’jaliklarda yo’qligi yoki nosozligi, iqlimning issiq sharoiti kabi holatlar bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat yo'qotilishi va isrofi ekologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega mavzudir. UNEP ma’lumotlariga ko’ra, global issiqxona gazlari chiqindilarining 8–10 foizini tashkil etadi [2, 3]. Boshqacha qilib aytganda butun dunyo samolyotlari, barcha yo'lovchi va yuk reyslari bir yilda qancha zararli gaz chiqarsa, isrof bo'lgan ovqat undan besh baravar ko'proq chiqaradi.


Qolaversa, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyor holgan keltirish uchun sarflangan energiya, yer va resusrlar ham oz emas. FAO 2013-yilgi tadqiqotiga ko'ra, iste’mol qilinmagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog’liq yer maydoni qariyb 1,4 milliard gektar yerni, qishloq xo’jaligi yerlarining esa 28 foizini tashkil etadi[8].

Suv resurslari nuqta’i nazaridan, oziq-ovqat isrofining "ko'k suv izi" ya'ni foydalanilgan yer usti va yer osti suvlaridan foydalanish bilan bog’liq suv hajmi taxminan 250 kub kilometrni tashkil etadi. Ushbu ko’rsatgich Volga daryosining yillik oqimiga yoki Jeneva ko'lidan uch baravar ko'p suv hajmiga teng [8]. Quyidagi ma’lumot butun bir yirik

daryoning suvi shunchaki behuda, iste’mol qilinmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini sug’orish va yetishtirish uchun sarflanishini ko’rsatadi.

Ochlik va isrof paradoksi

Bugungi kunda dunyo oziq-ovqat tanqisligidan emas, balki uni adolatsiz taqsimlash va behuda sarflashdan aziyat chekmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo fermerlari va agrobiznes 2022-yilda 11 milliard tonna oziq-ovqat va 9,6 milliard tonna asosiy ekinlar makkajo'xori, guruch, bug'doyni, shuningdek go’sht va baliq mahsulotlarini ishlb chiqardi. Agar bir kishiga yiliga o'rtacha bir tonna oziq-ovqat kifoya qilishini hisobga olsak, ishlab chiqarilgan mahsulot hozirgi 8 milliard aholidan tashqari yana qariyb 3 milliard qo'shimcha kishini ham boqishga yetarli bo'lar edi.



Shunga qaramay, so’nggi yillarda yuz millionlab odam dunyo bo’ylab ochlik muammosi bilan kurashmoqda. BMTning SOFI 2026 hisobotiga ko'ra, 2025-yilda dunyo aholisining 7,8 foizi, ya'ni taxminan 645 million kishi ochlikni boshdan kechirgan [10]. FAO mutaxassislarining o'zi ta'kidlaganidek, boylik va ishlab chiqarish hajmi tobora ortib borayotgan bir paytda shuncha odamning och qolishi bu chinakam tarixiy paradoksdir.

Yechimlar

12.3-vazifaga erishish ta'minot zanjirining har bir bo'g'inida alohida choralarni talab qiladi.

Ishlab chiqaruvchilar va davlat uchun:

• sovutish omborlari, saralash va qadoqlash liniyalari hamda zamonaviy logistika tizimini rivojlantirish

• kichik fermerlarni kooperatsiyaga jalb qilish, ularga hosilni to'g'ri yig'ish va saqlash bo'yicha seminarlar tashkil qilib, texnik yordam ko'rsatish;

• mavsumiy ortiqcha hosilni quritish, konservalash va muzlatish orqali saqlash hamda qayta ishlashni rivojlantirish;

• oziq-ovqat isrofi yo'qotilishi va isrofini muntazam o'lchash va monitoring qilish tizimini joriy etish;

Biznes uchun:

• talabni aniqroq prognoz qilish va buyurtmalar hajmini shunga moslash;

• muddati tugayotgan mahsulotlarga chegirmalar qo'llash;

• tashqi ko'rinishi nomukammal, lekin sifatli mahsulotlar sotuvini yo'lga qo'yish;

• restoran va ovqatlanish joylarida porsiya hajmini maqbullashtirish va ortib qolgan oziq-ovqatdan samarali foydalanish;

Oila va shaxs uchun:

• xaridni oldindan rejalashtirish va ro'yxat asosida xarid qilish;

• «eng yaxshi iste'mol muddati» va «xavfsiz iste'mol muddati» o'rtasidagi farqni bilish;

• ortib qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini to’g’ri saqlash va ortiq qolgan qismidan yangi taom tayyorlashda foydalanish;

• oziq-ovqat qoldiqlarini kompostlash.

Xulosa

Oziq-ovqat isrofi va yo'qotilishi bir vaqtning o'zida oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot va iqlim muammosidir. Global miqyosda isrofning asosiy qismi uy xo'jaliklari va umumiy ovqatlanishga, logistika va sovutish mexanizmlariga to’g’ri keladi. Shu sababli 12.3-vazifaga erishish uchun faqat davlat yoki faqat iste'molchi harakat qilishi yetarli emas: dehqondan tortib oila dasturxonigacha bo'lgan butun zanjir ishtirokchilari mas'uliyatni his qilishi, avvalo, ishonchli o'lchov tizimini yaratishi lozim. Har bir tejalgan non yoki sabzavot ochlikka qarshi kurashga, tabiiy resurslarni asrashga va iqlim o'zgarishini sekinlashtirishga qo'shilgan hissadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] United Nations. Sustainable Development Goal 12: Ensure sustainable consumption and production patterns, Target 12.3. UN Department of Economic and Social Affairs. https://sdgs.un.org/goals/goal12

[2] UNEP (2024). Food Waste Index Report 2024. Think Eat Save: Tracking Progress to Halve Global Food Waste. Nairobi: United Nations Environment Programme. https://www.unep.org/resources/publication/food-waste-index-report-2024

[3] UNEP (2024). World squanders over 1 billion meals a day – UN report (press release, 27 March 2024). https://www.unep.org/news-and-stories/press-release/world-squanders-over-1-billion-meals-day-un-report

[4] UN News (2024). With 783 million people going hungry, a fifth of all food goes to waste, 27 March 2024. https://news.un.org/en/story/2024/03/1148036

[5] FreshPlaza (2025). Rising fruit and vegetable exports and production drive the need to expand cold storage in Uzbekistan, 24 October 2025. https://www.freshplaza.com/asia/article/9778399/

[6] FreshPlaza (2024). Uzbekistan faces cold storage capacity shortage for fruit and veg preservation (Institute for Macroeconomic and Regional Studies data), 20 September 2024. https://www.freshplaza.com/asia/article/9660616/

[7] Reducing Food Loss and Waste in Uzbekistan: Challenges and Policy Solutions (2026). Zenodo. https://zenodo.org/records/22123870

[8] FAO (2013). Food Wastage Footprint: Impacts on Natural Resources. Summary Report. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

[9] FAO. SDG indicator 12.3.1(a): Global Food Loss Index. FAO SDG Indicators Data Portal.

